



Og'zaki monolog nutqni rivojlantirish: pedagogik mashqlar va metodik yondashuvlar

Raximov Xurshidjon Xursandjon o'g'li –

Farg'ona davlat universiteti

Amaliy ingliz tili kafedrası o'qituvchisi,

E-mail: rahimovx@list.ru | ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-4642-6416>

Tel: +998 99 601 57 27

Annotatsiya. Og'zaki monolog nutq ko'nikmalarini rivojlantirish chet tilini o'qitishda eng muhim yo'nalishlardan biridir. Bu ko'nikma o'quvchilarga o'z fikrini izchil, mantiqiy va mustaqil tarzda ifodalash imkonini beradi. Ushbu maqolada monologik kompetensiyani shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi, shuningdek, talabalarda ravonlik, mantiqiylik va ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi mashqlarga alohida e'tibor qaratiladi. Kommunikativ ta'lim tamoyillari va nutq hosil bo'lishining psixolingvistik nazariyalariga asoslangan holda samarali pedagogik strategiyalar hamda mashqlar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: og'zaki monolog nutqi, kommunikativ kompetensiya, chet tilini o'qitish, nutqni rivojlantirish, dars mashqlari.

Развитие устной монологической речи: педагогические упражнения и методологические аспекты

Аннотация. Развитие навыков устной монологической речи является краеугольным камнем в изучении иностранного языка, так как оно позволяет учащимся строить связное, логичное и самостоятельное высказывание. В данной статье исследуются теоретические и практические аспекты формирования устной монологической компетенции, особое внимание уделяется учебным упражнениям, которые способствуют развитию беглости, связности и креативности речи. Опираясь на принципы коммуникативного обучения и

психолингвистические теории порождения речи, автор представляет комплекс педагогических стратегий и упражнений, направленных на повышение способности студентов организовывать и представлять монологические высказывания. Предложенные упражнения анализируются с точки зрения их педагогической ценности и потенциала для развития автономии обучающихся.

Ключевые слова: устная монологическая речь, коммуникативная компетенция, обучение иностранным языкам, развитие речи, учебные упражнения.

Developing oral monologic speech skills: pedagogical exercises and methodological insights

Annotation. *The development of oral monologic speech skills is a cornerstone in foreign language learning, as it enables learners to construct coherent, logical, and independent discourse. This article investigates theoretical and practical aspects of fostering oral monologic competence, with special attention to classroom exercises that promote fluency, coherence, and creativity. Drawing on communicative language teaching principles and psycholinguistic theories of speech production, the study presents a set of pedagogical strategies and exercises aimed at enhancing learners' abilities to organize and deliver monologic discourse effectively. The proposed exercises are evaluated for their pedagogical value and potential to improve learner autonomy.*

Keywords: *oral monologic speech, communicative competence, foreign language teaching, speech development, classroom exercises.*

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonida xorijiy til o'qituvchisining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish ta'limning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu kompetensiyaning ajralmas qismi sifatida og'zaki nutq, ayniqsa, monologik nutqni erkin va izchil shakllantira olish qobiliyati katta ahamiyatga ega. Xorijiy tilni o'rgatishda ko'plab o'quvchilar erkin suhbatga kirisha olsa-da, fikrni mustaqil va mantiqiy izchillikda bayon qilish ya'ni monolog tuzish ko'nikmasida qiyinchiliklarga duch kelishadi. Aynan shuning uchun, til o'rganishda monologik nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik ishlar va pedagogik mashqlar alohida o'rinni egallaydi.

Monologik nutq o'z ichiga fikrni izchil ifodalash, dalillash, xulosa qilish va tinglovchiga yo'naltirilgan nutq tuzish kabi murakkab ko'nikmalarni oladi. Bunday nutq shakli o'quvchilardan nafaqat til bilimlarini, balki tafakkur, ritorika va madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini ham talab etadi. Shu boisdan, pedagogik mashqlarni ishlab chiqishda o'quvchilarning til darajasi, muloqot ehtiyojlari, va psixolingvistik xususiyatlari hisobga olinishi zarur.

Bugungi kunda xorijiy til o'qitish metodikasida kommunikativ yondashuv, task-based learning (vazifaga asoslangan o'qitish), CLIL (Content and Language Integrated Learning) kabi metodlar keng qo'llanilib, o'quvchilarni faol nutqiy faoliyatga jalb etishga xizmat qilmoqda. Shunday bo'lsa-da, ko'plab amaliyotlarda og'zaki monolog nutqqa yetarli e'tibor berilmayapti, bu esa o'qituvchilarning nutqiy tayyorgarligida bo'shliqlar paydo qilmoqda.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining og'zaki monolog nutqini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metodik yondashuvlar va mashq turlarini aniqlash va takomillashtirishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Til o'qitish metodikasida og'zaki monolog nutq o'rgatish muhim mavzulardan biri bo'lib, bu boradagi ilmiy qarashlar turli nazariy yondashuvlarga asoslangan. Monologik nutqni o'rgatish jarayonida nafaqat til birliklari, balki mantiqiy izchillik, struktura va tinglovchiga mo'ljallangan ifoda usullari ham muhim ahamiyatga ega.

Brown va Yule (1983) o'z tadqiqotida monologik nutqni nutqiy faoliyatning alohida shakli sifatida tahlil qilgan. Ularning fikricha, monolog tinglovchi e'tiborini jalb etish, fikrni mantiqiy tartibda ifodalash va aniq bayon qilishni talab etadi. Mualliflar monologni ikki turga – rejalashtirilgan (planned) va rejalashtirilmagan (unplanned) nutqqa ajratgan holda, ularning o'quv jarayonidagi o'rni va mashq shakllarini ham ko'rsatib bergan.

Vygotskiy (1978) esa monologik nutqni inson tafakkurining tashqi ko'rinishi sifatida baholab, uni o'quvchining ichki fikrlash faoliyati bilan bevosita bog'laydi. Vygotskiyning sotsiokultural nazariyasiga ko'ra, til o'rganish jarayonida o'quvchi avval muloqot orqali tilni egallaydi, keyin esa bu bilim ichki nutqqa aylanadi va mustaqil ifoda qilish qobiliyatiga sabab bo'ladi. Bu qarashlar monologik nutqni shakllantirishda tafakkur va til birligini ta'minlash zarurligini asoslaydi.

Kommunikativ yondashuv (CLT) doirasida o'quvchilarni real kommunikativ vaziyatlarda monolog tuzishga o'rgatish zarurati Littlewood (2004) tomonidan keng yoritilgan. U kommunikativ kompetensiya tarkibida og'zaki monolog muhim o'rin egallashini ta'kidlaydi va mashqlarning o'quvchini mustaqil nutq tuzishga undashi kerakligini qayd etadi. Uning ta'kidlashicha, monologik nutq bu o'quvchining erkin fikrlashi, izchil bayon qilish qobiliyati va tinglovchini hisobga olgan holda nutqni shakllantirish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Til o'rganish jarayonida til materialini qanday qabul qilish va undan foydalanishga oid nazariyalar ham monologik nutqni o'rgatishda muhim hisoblanadi. Krashen (1985) "Kirish gipotezasi"da til o'rganuvchiga yetarlicha tushunarli (comprehensible) til materiali taqdim etilishi zarurligini asoslaydi. Bu gipotezaga ko'ra, o'quvchi avval eshitish va tushunish orqali tilni qabul qiladi. Bunga javoban Swain (2000) "Chiqish gipotezasi"ni ilgari surib, o'quvchining o'zi nutq ishlab chiqara olishi ya'ni monolog tuzishi til bilimlarini mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Bu gipotezalar til o'rgatishda faqat tinglash yoki o'qish emas, balki faol gapirish mashqlari xususan, monologik nutq zarurligini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar, masalan, Wang (2022) tomonidan chop etilgan ishda, EFL (English as a Foreign Language) o'qitish jarayonida intervyu, taqdimot, hikoya qilish kabi faol mashqlar orqali monologik nutqni rivojlantirish mumkinligi ko'rsatilgan. Shuningdek, task-based learning (vazifaga asoslangan o'qitish) yondashuvida ham talabalarining og'zaki nutqini erkin ifoda qilishga undovchi topshiriqlarning roli alohida urg'ulanadi. Monologik nutqni rivojlantirish ko'p qirrali yondashuvlarni talab qilishini ko'rsatadi. Bu boradagi nazariy g'oyalar (Brown & Yule, Vygotskiy, Krashen, Swain) va metodik yondashuvlar (CLT, TBL, interaktiv mashqlar) til o'rganish jarayonida monologik nutqni shakllantirishda kompleks yondashuv zarurligini asoslaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining og'zaki monolog nutqini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik mashqlar va metodik yondashuvlarning samaradorligini aniqlash maqsad qilingan. Tadqiqotda nazariy tahlil, amaliy kuzatuv, taqqoslovii yondashuv hamda sifatli (qualitative) tahlil metodlari qo'llanildi. Avvalo, monologik nutqning mazmuni, tuzilmasi, psixolingvistik va kommunikativ xususiyatlari, shuningdek, xorijiy til o'qitishda og'zaki nutqni shakllantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy metodik qarashlar chuqur o'rganildi. Bu jarayonda kommunikativ yondashuv,

vazifaga asoslangan oʻqitish (task-based learning) va mazmun orqali til oʻrgatish (CLIL) kabi zamonaviy til oʻqitish metodlari asos qilib olindi.

Amaliy bosqichda boʻlajak oʻqituvchilar bilan ogʻzaki monolog nutqni rivojlantirishga qaratilgan mashgʻulotlar tashkil etildi. Ushbu mashqlarda mavzu asosida mustaqil nutq tuzish, biror masala yuzasidan fikr bildirish, sabab-oqibat munosabatlarini bayon qilish, dalil keltirish, fikrni asoslash kabi koʻnikmalarni shakllantirishga qaratilgan topshiriqlardan foydalanildi. Talabalarning nutqiy faolligi, gap tuzish tezligi, izchilligi, fikrni aniq yetkazish qobiliyati va grammatika- leksik birliklardan foydalanish darajasi kuzatilib baholandi.

Tahlil bosqichida yozib olingan nutq namunalari sifatli yondashuv asosida oʻrganildi. Talabalarning ogʻzaki ifoda uslubi, nutq mantiqliligi, til vositalaridan toʻgʻri va samarali foydalanishi, hamda monologni mantiqiy yakunlay olish salohiyati asosida mezonlar ishlab chiqildi. Kuzatuv natijalari esa monologik nutqni rivojlantirishga qaratilgan mashqlarning yuqori samaradorlikka ega ekanini koʻrsatdi.

Bundan tashqari, metodologik yondashuvda taqqosloviiy tahlilga ham murojaat qilindi: anʼanaviy leksik-grammatik mashqlar bilan ogʻzaki monolog mashqlarining taʼsiri solishtirilib, monologik faoliyatga yoʻnaltirilgan yondashuvlar tilni faol egallashda ustunroq ekanligi aniqlashtirildi. Tadqiqot davomida aniqlanganki, ogʻzaki monolog nutqni rivojlantirish uchun tuzilgan mashqlar shunchaki til koʻnikmalarini emas, balki muloqot, tanqidiy fikrlash, madaniyatlararo xabardorlik va kasbiy ifoda qilish salohiyatini ham shakllantiradi.

Umuman olganda, tadqiqot metodologiyasi ogʻzaki monolog nutqni samarali rivojlantirish uchun integrativ va bosqichma-bosqich yondashuvlarni, interaktiv mashqlarni va real kommunikativ vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarni qoʻllash zarurligini isbotlashga xizmat qildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, ogʻzaki monolog nutqni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik mashqlar va zamonaviy metodik yondashuvlar boʻlajak xorijiy til oʻqituvchilarining nutqiy va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Monologik nutqning oʻrgatilishi izchil va bosqichma-bosqich metodik asosda tashkil etilganda, oʻquvchilarda mustaqil fikrlash, oʻz fikrini mantiqan asoslab bayon qilish, tinglovchini inobatga olgan holda nutq tuzish qobiliyatlari sezilarli darajada rivojlanadi.

Amaliy mashgʻulotlar davomida qoʻllanilgan taqdimotlar, hikoya qilish, mavzuga doir fikr bildirish va muhokama shaklidagi topshiriqlar oʻquvchilarning nutqiy faolligini oshirib, ularni real kommunikativ vaziyatlarga tayyorladi. Ayniqsa, task-based learning (vazifaga asoslangan oʻqitish) va kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda oʻquvchilar oʻz nutqini erkin va mazmunli shakllantirishga harakat qilgani kuzatildi. Bu esa monologik nutqni nafaqat til oʻrganish vositasi, balki shaxsiy va kasbiy rivojlanishning bir qismi sifatida qarash zarurligini koʻrsatadi.

Tadqiqot davomida shuningdek, “Chiqish gipotezasi” (Swain, 2000) amaliy jihatdan tasdiqlandi. Oʻquvchilar nutqiy topshiriqlarni bajarayotganda nafaqat mavjud til bilimlarini qoʻlladilar, balki yangi til shakllarini faol ishlab chiqishga ham intildilar. Bu esa ularda grammatik toʻgʻrilik, izchillik va loʻndalik kabi nutqiy sifatning rivojlanishiga xizmat qildi.

Anʼanaviy darslarda monologik nutqqa yetarlicha eʼtibor berilmagani bois, oʻquvchilarda nutqiy faollik va mustaqil fikr bildirishga tayyorgarlik darajasi past boʻlgan. Ammo tizimli mashqlar joriy etilgach, ularning ogʻzaki ifoda darajasi, nutqning izchilligi va mazmunlilik koʻrsatkichlari ancha oshdi. Bu esa monologik nutqni rivojlantirish uchun zarur boʻlgan metodik yondashuvlar amaliyotda oʻzini oqlashini koʻrsatadi. Ogʻzaki monolog nutqni rivojlantirish boʻyicha ishlab chiqilgan pedagogik mashqlar va metodik yondashuvlar

bo'lajak xorijiy til o'qituvchilari uchun kasbiy tayyorgarlik jarayonida zaruriy vosita bo'lib xizmat qiladi. Bunday mashqlar til kompetensiyasi bilan bir qatorda muloqot, tanqidiy fikrlash va madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot og'zaki monolog nutqini rivojlantirishning nazariy-amaliy jihatlarini tahlil qildi va bu sohadagi eng muhim muammolarni hal qilish yo'llarini taklif etdi. Ishlab chiqilgan "Rasm asosida hikoya qilish" va "Mavzuga asoslangan monolog" mashqlari psixolingvistik, kommunikativ va didaktik nazariyalar asosida yaratildi hamda kompleks yondashuvni amalga oshiradi. Birinchi mashq vizual stimullar orqali narrativ kompetensiyani rivojlantiradi va boshlang'ich darajadagi talabalar uchun mos, ikkinchisi esa tanqidiy fikrlash va argumentatsiya ko'nikmalarini shakllantiradi va yuqori darajadagi o'quvchilar uchun professional nutq madaniyatini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, monologik nutqni samarali rivojlantirish uchun nazariy asoslilik, bosqichma-bosqich murakkablashuv va individual yondashuvlar muhim ahamiyatga ega.

Amaliy jihatdan, taklif etilgan mashqlar oliy ta'lim muassasalarida bevosita qo'llanishi mumkin bo'lgan pedagogik vositalar bo'lib, chet tili o'qituvchilari uchun metodik yordam beradi va talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantiradi. Tadqiqotning ilmiy hissasi monologik nutqni rivojlantirishning nazariy asoslarini sistemalashtirishda va amaliy mashqlarni mustahkam nazariy bazaga asoslashda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, kelajakdagi tadqiqotchilardan ushbu mashqlarning empirik tekshiruvini o'tkazishlari, ularni turli kontekst va yoshdagi o'quvchilar uchun moslashtirishlari hamda zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan boyitishlari kutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G.Ekici, Silencing monologic teaching in ELICOS. Teaching English As a Foreign Language Journal, 3(1), 1-16, –2024.
2. D.Mukhammadjonova, Enhancing EFL students' speaking proficiency through task-based learning: A role-play approach. PEDAGOGS, 77(1), 211-213, –2025.
3. N.Fitriani, A.Rofiq va M.Ariani, English Teachers' Innovative Approach to Teaching Speaking Skills. English Education: Journal of English Teaching and Research, 10(1), 92-100, –2025.
4. M.Abrar, N.Fajaryani, va A.W.Ningsih, EFL learners' challenges to speak English in online speaking classes. Jurnal Kependidikan: Penelitian Inovasi Pembelajaran, 8(2), –2024.
5. V.Simbolon, Understanding the strategies employed by EFL learners to overcome speaking anxiety in the classroom. MIREJ: Multidisciplinary Innovation Research Journal, 1(1).
6. J.Harmer, The practice of English language teaching (5th ed.). Pearson, –2015.